

MAQOM XONANDALIGIDA OVOZ USTIDA ISHLASH VA XONANDALAR MALAKASI



Mansurbek Egamberganovich Vaisov

“Maqom xonandaligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-14>

Annotatsiya: Ansambl professional xonandasining muvaffaqiyatga erishishi uchun musiqiy nazariya, ritm va intonatsiyani tushunish majburiyidir. Xonandaning ovozi bu uning musiqiy cholg‘usidir. Ijrochi o‘z ovozining musiqiylik darajasi haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lishi, uni qanday boshqarishni bilishi kerak. Bu borada texnika asosiy shart hisoblanadi. Ushbu maqolada maqom xonandalarining ovozi ustida ishlash va professional xonandalar malakasi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Maqom xonandaligi, ovoz, intonatsiya, talaffuz, registr, ijrochi, ansambl, musiqaiy asar, tembr.

Аннотация: Для достижения успеха профессиональному певцу ансамбля необходимо понимание музыкальной теории, ритма и интонации. Голос певца - это его музыкальный инструмент. Исполнитель должен обладать полной информацией о музыкальных возможностях своего голоса и знать, как им управлять. В этом отношении техника является основным условием. В данной статье рассматривается работа над голосом певцов макома и квалификация профессиональных певцов.

Ключевые слова: Макомное пение, голос, интонация, произношение, регистр, исполнитель, ансамбль, музыкальное произведение, тембр.

Abstract: To achieve success, a professional ensemble singer needs to understand music theory, rhythm, and intonation. The singer's voice is their musical instrument. The performer must have comprehensive knowledge of their voice's musical capabilities and know how to control it. In this regard, technique is the fundamental requirement. This article examines the vocal work of maqom singers and the qualifications of professional singers.

Keywords: Maqom singing, voice, intonation, pronunciation, register, performer, ensemble, musical composition, timbre.

Maqom xonandaligida ovozni ustida ishlash muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki ovoz xonandaning eng asosiy ish quroli, cholg‘usidir. Bu “cholg‘u”ni parvarishlash, me’yoriy qoidalarga rioya etgan holda munosabatda bo‘lish, asrash, avaylash uning salomatligi va uzoq vaqt xizmat qilishiga olib keladi. Ovozni yo‘lga qo‘yish masalasi juda katta ilmni talab etadi. Bu borada muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir nechta yo‘nalishdagi bilimlarni egallamoq lozim. Ovoz xosil qiluvchi apparatning tuzilishi, joylashishi, fiziologiyasi, parvarishlash tartibi, rivojlantirish uchun mashqlar, nafas mashqlari va boshqa shunga o‘xshash bir qancha ma’lumotlarga ega bo‘lish hamda amaliy jihatdan bajarib borish zarur. Bu borada tibbiyot xodimlari va pedagoglar birgalikda, bamaslahat ish olib borganlari ma’qul. Chunki har bir xonanda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Ana shu individuallikdan kelib chiqqan holda bo‘lajak xonandaga yuklama beriladi.

Professional xonanda, ya’ni sohasiga zarur ma’lumotga ega san’atkor biror maqsadni ko‘zlab doimiy ravishda mehnat qiladi, muntazam ravishda malakasini oshirib boradi. Bu so‘zlar

har qanday kasb uchun to‘g‘ri keladi. Biroq, aynan malakali, professional xonanda nimasi bilan ajralib turadi?

1. Toza intonatsiya. Professional xonanda o‘z ovozini boshqarishni biladi, musiqiy xatolikka yo‘l qo‘ymaydi.

2. To‘g‘ri yo‘naltirilgan nafasga tayanadi. Busiz chiroyli ovoz bilan kuylash va falshga yo‘q qo‘ymaslik mumkin emas.

3. Professional asarni jumalalarga bo‘lish (frazirovka) prinsiplarini biladi. Matnni jumalalarga bo‘la oladi.

4. Yaxshi, sifatli talaffuz. Hamma so‘zlar tushunarli, aniq, tinglovchi hozir qo‘shiqda, maqom asarida nima deyildi, deb bosh qotirmaydi.

5. Professional nota ilmini yaxshi biladi, har qanday asarni mustaqil o‘rgana oladi.

6. Ijrochining aktyorlik mahorati. Bular badiiy obrazning yorqinligini kuchaytirishga, xonandaning bir mucha kuchli jihatlarini yanada bo‘rttirishga xizmat qiladigan ko‘rgazmali vositadir. Bunga sahna libosi, zalda o‘tirgan tomoshabinlar bilan muloqot va ijroni sahnalashtirish mahoratlari ham taalluqlidir.

7. Registrarni me’yorida ushlaydi. Tinglovchilar xonanda qachon qanday nafas olayotganligini, nafas olishning bir turidan ikkinchisiga qanday o‘tganligini sezmaydi.

Aynan mana shular professional malakali xonanda bilan havaskorlarni farqlovchi jihatlar sanaladi. Shuning uchun, har bir talaba professional malakaga ega maqom xonandasini bo‘lishni istasa har kuni shug‘ullanishi lozim. Professionallikning yana bir belgisi, xonanda yakka ijroda ham, ansambl tarkibida ham asarlarni ijro etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Malakali xonandalar zarur hollarda ansambl ijrosidan yakka ijroga silliq o‘tish lozimligini yaxshi tushunishlari kerak.

Ansambl professional xonandasining muvaffaqiyatga erishishi uchun musiqiy nazariya, ritm va intonatsiyani tushunish majburiydir. Xonandaning ovozi bu uning musiqiy cholg‘usidir. Ijrochi o‘z ovozining musiqiylik darajasi haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lishi, uni qanday boshqarishni bilishi kerak. Bu borada texnika asosiy shart hisoblanadi.

Ustoz san’atkorlarimizning ijrochilik yo‘llarini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, ular ham yuqori professionallikka erishish yo‘lida asarlarni ijro etishni mashq qilish bilan birga, musiqa ilmi borasida ham o‘z bilimlarini oshirib borganlar. Bir nechta ustozlarda ta’lim olganlar. Zamondosh xonandalarning ijrolarini kuzatib yurib, o‘zlarining alohida ijrochilik uslublarini tanlaganlar. Ovozining salomatligiga alohida e’tibor berib, undan foydalanish, boshqarish masalalariga jiddiy yondoshganlar.

Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq xofizi Orifxon Hotamovning ijodini eslasak, uning yoshligidan mohir xonandalar Jo‘raxon Sultonov va Mamurjon Uzoqovlar xonishlariga mehr qo‘yaninini bilamiz. Bu san’atkorlar davrasiga sozandalik kasbi orqali kirib kelgan, garchi kuylashga iste’dodi va ovoz imkoniyat mavjud bo‘lsa-da 1944-yil Jo‘raxon Sultonov, Mamurjon Uzoqov va G‘anijon Toshmatovlar bilan birgalikda jo‘rnavoz bo‘lib ijod qila boshlaydi. Bu ustozlardan Orifxon Hotamov ta’lim oldi, ularning yo‘lidan yurib sabog‘ini oldi. Keyinchalik uning ovoz xususiyatiga mos jo‘rnavoz Saidalixo‘ja Qudratov bilan birgalikda xonandalik qila boshladi. Keyinchalik yana boshqa xonandalar va shogirdlari bilan jo‘rovoz sifatida ijod qildi. Orifxon Hotamov professional xonanda sifatida yillar davomida olgan saboqlari, jo‘rovozlikda olgan tajribalari orqali malakali san’atkorga aylandi.

Xalqimizning sevimli xofizlaridan yana biri Rasulqori Mamadaliyevning ijodiga ahamiyat beraylik. Aslida uning ijro uslubida talqin etish ijrochidan juda katta mahorat talab etadi. Mahoratni namoyon etish uchun esa, keng ko‘lamli ovoz, burro talaffuz, usullarni aniq ifodalovchi jo‘rnavozlik, serjilo ohanglarni rang-barang sayqallar bilan bezab shiddatli talqin etish lozim bo‘ladi. Bu jarayonda albatta, soz bilan xonish mutanosibligini saqlash muhimdir. Ijro amaliyotida muayyan ijro uslubining muktab darajasida rivojlanishi ushbu uslubning muvaffaqiyatli davom etish jarayoni bilan bog‘liqidir.

Kuylash insoniyat madaniy hayotining ilk davrlaridayoq paydo bo‘lgan va inson boshidan kechirgan hissiyot va tuyg‘ularni aks ettirish yoki biror udum yoki marosimlarni o‘tkazish uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik maishiy hayot bilan bog‘liq turli qo‘shiqlar paydo bo‘lgan. Aytish joizki,

xonandalik san'atining birinchi ijrochilari xalq xonandalari bo'lgan. Ayni davrda esa xonanda o'zining malakaviy tajribasi va bilimlarini ansambl ijrochiligidagi, teatrarda, madaniyat saroylarida, ijtimoiy tashkilotlarda (bolalar ijodiyoti va dam olish markazlarida), televide niye va radioda, ta'lim maskanlarida (ixtisoslashgan kollej, texnikum, oliy o'quv yurtlari, konservatoriya) qo'llashi mumkin.

Professional xonandaning yetakchi faoliyati quyidagilardir:

- Musiqiy fikrni ovoz va kuylashning turli texnikalaridan foydalangan holda aks ettirish;
- Katta sahnalarda omma oldida kuylash (chiqish);
- Asarning hissiy ma'nosini xonandalik san'ati, aktyorlik mahorati orqali to'laqonli yetkazish;
- Musiqiy asarlarni turli uslublarda ijro etish;
- Konsert dasturlarini (qo'yish) tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etish;
- Ansambl konsetlarida ishtirok etish;
- Yakka xonanda va ansambl tarkibida kuylash (chiqish);
- Ovoz intonatsiyasi va tembri yordamida turli tuyg'ularni maromiga yetkazib ijro etish.

Xonandaning mehnat quroli uning ovoz apparati hisoblanadi. Nafas a'zolari, qovurg'alararo mushaklar, diafragma, qorin va xalqum mushaklari, ovoz bog'lamlari, til, yuqori nafas yo'llari, burun bo'shlig'i va tishlarning umumiyligi ishtirokida ovoz paydo bo'ladi. Ana shu tufayli xonandaning texnik operatsiyalarni bajarish vaqtida tovush paydo qilishga ko'maklashuvchi resurslardan to'g'ri foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xonandalik mahsus ish joyi va holatni talab qilmaydi.

Professional xonandaning mehnat sharoitlari u qaysi janrda foliyat yuritishiga qarab farqlanishi mumkin, biroq, bir qator umumiy talablar ham bor. Bu talablarning hammasi xonandaning ovoz hosil qiluvchi apparatini eng yuqori darajada yaxshi saqlashga erishishga va ovoz jarangini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan. Birinchidan, ish rejasi ovoz apparatlarining haddan tashqari zo'riqishiga olib kelmasligi lozim: uzluksiz ishlash qisqa va dam olish tanaffuslari mavjud bo'lishi shart.

Ikkinchidan, xonandaning biologik ritmi, fiziologik, psixologik holatini hisobga olish juda katta ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu jihatlar ijro sifati va kasbiy imkoniyatlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin (misol uchun, ovozning o'zgarishi, asabiylar, buzilishlar).

Uchinchidan, mos keluvchi mikroiqlim sharoitlari bo'lishi zarur: me'yoriy harorat va namlik, tashqi shovqinning deyarli eshitilmasligi va h.k. To'rtinchidan, bino akustikasining mosligi va ishlatilayotgan texnik jixozlar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mehnat sharoitlari xonandaning shaxsiy hususiyatlarini e'tiborga olishi shart. Chunki, turli ijrochilarning ovoz apparatlari faqatgina o'ziga hos hislatlarga ega bo'ladi.

Professional kasb faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan quyidagi fazilatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: chiroqli, kuchli, moslashuvchan ovoz va uni boshqarishni bilish, musiqanining tabiatidan kelib chiqqan holda yo'naltirish, tinglovchilar bilan umumiy aloqani topa bilish; toza, aniq talaffuz, musiqani nozik his qilish, musiqiy qobiliyatlar (musiqani yaxshi tushunish, musiqiy qobiliyat, ritmni his qilish); artistlik qobiliyatları, ijodkorlik, sahnada erkin va to'siqsiz harakat.

Shaxsiy sifat va fazilatlar, qiziqishlar va moyilliklar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: badiiylik (ekspressivlik, ifodalilik), hissiylik (emotsionallik), sezgirlik, sabr-toqat, improvizatsiya qobiliyatı, o'ziga hoslik, intuitivlik, musiqiylik (musiqani professional egallash).

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun xonanda zarur bilimlarga ega bo'lishi shart. Bu, birinchidan, falsafa, adabiyot, madaniyat kabi gumanitar fanlarning nazariyasi va tarixiga oid yetarli bilimga ega bo'lishidir. Ikkinchidan, inson anatomiyasi va fiziologiyasi hamda valeologiyaga taalluqli talablarni, ya'ni, ovoz apparatining o'ziga hos faoliyati, kuylashda turli fiziologik tizim va jarayonlarning o'zaro aloqasi, ovoz apparatini sog'lom tutish va buziliishlar yuz berganda nimalar qilish kerakligini bilish. Uchinchidan, musiqa nazariyasini bilish: solfedjio,

musiqiy adabiyotlar, garmoniya, kompozitsiya va boshqalar. To‘rtinchidan, kasbga tegishli aktyorlik mahorati, sahna harakati kabi ilmlarni o‘zlashtirish.

Aniqki, xonanda uchun egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llash o‘ta muhim sanaladi. Shuning uchun tovush chiqarish texnikasini o‘zlashtirishga ko‘mak beruvchi mutahassislik fanlarini chuqur o‘rganish juda ham zarurdir.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Bekmirzayev N “Notiqlik asoslari”, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 2006.
2. Imomxo‘jayev S. “Notiqlik san’ati asoslari”.-Toshkent,1982.
3. I.Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. – Toshkent,1963.
4. Jumaniyozov R. “Nutqiy mahorat”, “Adolat” nashriyoti, Toshkent, 2005.
5. Mirtojiyev M., Mahmudov N. “Til va madaniyat”. T., O‘zbekiston, 1992.
6. M.A.Hamidova, O.Ibrohimov, D.Mulajonov, “Xonandalik san’ati, Jahon va O‘zbek milliy an’analari”, “San’at” jurnali nashriyoti, Toshkent 2009 .
7. Ortiqov A. “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, Toshkent, 2002.
8. S.Begmatov “Hofizlik san’ati” Toshkent 2007 yil.
9. X.Isroilova-Qosimova. “An’anaviy hofizlik san’ati (Yakkaxon qo‘shiqchilik)”. Toshkent. 2007.